

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE



**“MAHMUDXO'JA BEHBUDIY
MEROZI VA JADIDLAR
HARAKATIDA ILM-FAN, TA'LIM VA
TARBIYA MASALALARI”**

(respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari)

2023-yil 8-aprel

TOSHKENT - 2023

1387

MUNDARIJA

1. <i>Shoeva R.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy – Jadidchilik harakatining rahnamosi.....	3
2. <i>Jabborov N.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim islohi konsepsiyasi.....	6
3. <i>Karimov B.</i> Behbudiy bergan saboqlar.....	17
4. <i>Jamolova D.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy - qozi, mufti va millat vakili.....	23
5. <i>Qo'chqorova M.</i> Istiqlol davri adabiyotshunosligida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodining ahamiyati	29
6. <i>Qo'ldoshev Sh.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy darsliklari (Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi misolida)	39
7. <i>Nasirov K.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy – Turkiston jadid ma'rifatparvarligining asoschisi	43
8. <i>Qaxxorova M.</i> Ilm-ma'rifatga asoslangan meros O'zbekiston strategiyasi asosi.....	49
9. <i>Xudoyberganov R.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari.....	56
10. <i>Xayitov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlar bo'sh vaqti bo'yicha qarashlari	60
11. <i>Saidnomanov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy – jadid ma'rifatparvari	65
12. <i>Ashurov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarining Ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	69
13. <i>Eshonova G.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi	75
14. <i>Pazlitdinova N.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy estetik qarashlari.....	78
15. <i>Xashimova X.</i> Jadidchilik harakati va uning mohiyati	82
16. <i>Boyatov O.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining bugungi kun yoshlariga ta'siri	86
17. <i>Ibragimova U., Boyatov O.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatida vatanparvarlik ruhiyati	91
18. <i>Eraliyeva M.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, uning ilmiy-siyosiy faoliyatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya masalalari	94
19. <i>Pernopasova E.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy	104
20. <i>Solijonov O.</i> Jadidlar harakati: O'tgan asrdan kelajakka yo'l	107
21. <i>Shernazarova K.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning tarixga bo'lgan yondashuvi: ma'rifat va taraqqiyotning asosiy vositasi	113
22. <i>Raxmatova G., Turgunova S.</i> Просветительские идеи Махмудходжи Бехбуди и его роль в развитии джадидского образования	117
23. <i>Yusupov M.</i> Махмудходжа Бехбуди – просветитель и драматург.....	122

24. <i>Valleva Z.</i> Взгляды Махмудходжи Бехбудия на образование и воспитание	126
25. <i>Nizomov F.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning til islohoti g'oyalarining zamonaviy ingliz tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlili	129
26. <i>Sayfullayev X.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning sayohatlari to'g'risida.....	132
27. <i>Nizomov F., Shaydullayeva D.</i> Jadidlarimiz xotirasiga ehtrom, jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakati tarafdori Mahmudxo'ja Behbudiy va uning yoshlarga murojaati	135
28. <i>Umirzokova S.</i> Behbudiy's role in educational reform	140
29. <i>Xasanov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy va tatar milliy matbuoti ("Sho'ro" jurnali misolida)	143
30. <i>Aminova M., Saidnomonov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodida milliy o'zlik va mustamlakachilik tanqidi	148
31. <i>Raxmonqulova Sh., Dadamirzayeva M.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy: ma'rifat chirog'i va millat uyg'otuvchisi	154
32. <i>Ismoilova N.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy: jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari	158
33. <i>Erkaboyeva J., Ochilova H.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyaviy merosi va Turkiston ma'rifatparvarlarining qarashlari	162
34. <i>Sattorova D.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, uning ilmiy-siyosiy faoliyati	168
35. <i>Xasanova A., Abdullayev A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, uning ilmiy-siyosiy faoliyati	173

II SHO'BA. MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARINING YOSH AVLODNI INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIIYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI

36. <i>Jumaniyozov R.</i> Jadid ma'rifatparvarlarining g'oyaviy qarashlarida nutq madaniyati va axloqiy tarbiya masalalarining uyg'unligi	176
37. <i>Otajonova M.</i> Umumta'lim maktablarida Behbudiyning "Padarkush" dramasi o'qitishga yangicha yondoshuv	181
38. <i>Murodov G'.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning darsliknavislik mahorati	186
39. <i>Isakova Z.</i> Махмудходжа Бехбудий и Новый Узбекистан: социально-философское сопоставление	191
40. <i>Uzokov B.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati	199
41. <i>Ziyaviddinova G.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning barkamol shaxs rivojlanishidagi psixologik qarashlari	204
42. <i>Absattorov B., Jo'rayeva Sh.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning axloqiy qarashlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati	206

43. <i>Absattorov B., Rustamova F.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi nafs tarbiyasi (fazilatmi yo illatmi) masalasi	211
44. <i>Abdullayeva F., Shodiyeva M.</i> Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy merosining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.....	217
45. <i>Sobirova X.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida yoshlarning o'rni	221
46. <i>Kamalova Z., Bobonazarova O.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limiy qarashlari: Psixologik asoslar va o'quvchi shaxsiyatini rivojlantirish	224
47. <i>Ashurov A., Pirmatov D.</i> Behbudiyning qardosh xalqlar birligi haqidagi qarashlari	228
48. <i>Yusupova K., Rustamov Sh.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlodni yetakchilik qobiliyati va ma'naviy salohiyatini oshirishdagi o'rni.....	232
49. <i>Elguzarov J.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy va uning ma'rifatchilik qarashlari xususida ("Padarkush" pyesasi misolida)	235
50. <i>Asqarov D.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida til masalasining yoritilishi	238
51. <i>Xolmirzayev Sh.</i> Yoshlarning intellektual salohiyati va ma'naviyatini oshirishda Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining o'rni: hamkorlik pedagogikasining nazariy va amaliy jihatlari	246
52. <i>Azatov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy va uning jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi	251
53. <i>Suyunova Z.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida komil inson tarbiyasi	255
54. <i>Raxmonova S.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi	260
55. <i>Kasimova Z.</i> Yoshlarda ilm-fan va ijtimoiy faollikni ta'minlashda Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarining ahamiyati	264
56. <i>Kasimova Z., Toshpo'latova L.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy va yoshlarga bag'ishlangan murojaatlar	268
57. <i>Abdisheripova Sh.</i> Behbudiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati	270
58. <i>Raxmonova S., Satimova S.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlodni intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishdagi o'rni	273
59. <i>Urinova G.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirishdagi o'rni	277
60. <i>Majidova M., Baxtibekova S.</i> Musulmon sharqidagi ma'rifatparvarlik harakatlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning tutgan o'rni	281

III SHO'BA: TURKISTON MA'RIFATPARVARLARINING G'OYAVIY-SIYOSIY, IJTIMOYIY-MA'RIFIY VA HUQUQIY-AXLOQIY QARASHLARI

61.	<i>Normamatov S.</i> Jadid ma'rifatparvarlari va davr lug'atchiligi	286
62.	<i>Avazov N.</i> Behbudiy Ijodida inson huquqlari himoyasining talqini	294
63.	<i>Obilqosimov M.</i> Jadid davri allomalari asarlarida Islom dini tarixining yoritilishi	297
64.	<i>Abduqahhorov L.</i> Turkiston ma'rifatparvarlarining dunyoqarashida gender tenglik masalasi	302
65.	<i>Axrorova A.</i> Jadidlar tashabbusi bilan Germaniyaga o'qishga borgan xotinqizlar va ularning ayanchli taqdiri	305
66.	<i>Yusupova K., Raxmatova N.</i> XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni	311
67.	<i>Pulatov O.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlaridagi ilmiy, ma'naviy va axloqiy qarashlari	316
68.	<i>Ismoilov T.</i> Jadid ma'rifatparvarlari ilmiy merosining yosh avlodni intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishdagi o'rni	320
69.	<i>Safarov Y.</i> Jadid ma'rifatparvari Sayid Rizo Alizodaning XX asr boshlaridagi mustamlakachilik siyosatiga bo'lgan munosabati	323
70.	<i>Ko'kiyev J.</i> Jadidchilik ma'naviy merosining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	327
71.	<i>Gafarova Sh., Abdullayeva D.</i> Buyuk alloma hayoti	331

IV SHO'BA: JADIDCHILIK G'OYALARI: KONSEPTUAL TAHLIL VA ILMIY YONDOSHUVLAR

72.	<i>Shomurotova N.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlodni intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishdagi o'rni	338
73.	<i>Olimova M.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining psixologik tahlili	341
74.	<i>Shomurotova N., Normurodova Y.</i> Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik qarashlarining inklyuziv ta'limga ta'siri	345
75.	<i>Xidirov X.</i> Jadidlar – ma'rifat targ'ibotchilari	347
76.	<i>G'apporov E.</i> Behbudiy qarashlarida jamiyat taraqqiyoti muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini	352
77.	<i>Kamalova Z.</i> Behbudiy merosida milliy ong va psixologik identifikatsiya masalalari	357
78.	<i>Turg'unpo'latova S.</i> Jadid ma'rifatparvarlari: Abdulla Avloniy, Fitrat va Behbudiyning tarbiyaviy qarashlari	362
79.	<i>Yodgorov J.</i> "Padarkush" asarida muallifning ishonirish nutqi: lingvistik pragmatika	365
80.	<i>Oltiboyev A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning tarixga bo'lgan yondoshuvi: ma'rifat va taraqqiyotning asosiy vositasi	368

81. <i>Boltaboyeva O.</i> Is'hoqxon To'ra Ibrat – muhtasham binolar bunyodkori	372
82. <i>Bobojonov G'.</i> Badliy asarda millat qayg'usining aks etishi	378
83. <i>Karimov O.</i> Adabiyotimiz rivojiga jadidchilik g'oyalari ta'siri	383
84. <i>Ochilova D.</i> UchlInchi Renessans poydevorini bunyod etishda jadidchilik harakati ilmiy yondashuvlarining o'rni	389
85. <i>Yusupova K.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ularning o'zbek ta'lim tizimidagi o'rni	393
86. <i>Yusupova K., Xaydarova S.</i> Jadidlar izidan: O'zbek adabiyoti va madaniyatidagi yangiliklar va rivojlanish	396
87. <i>Mamadaliyeva F.</i> Hamza she'larida poetik obrazlar ifodasi	399
88. <i>Daminova G., To'rayeva S.</i> Jadidlar va ularning ma'rifatparvarlik hayoti	403
89. <i>Nuriddinov A.</i> Abdurauf Fitrat asarlarining korpus uchun manba sifatida olinishi	408
90. <i>Daniyarov Sh.</i> Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari	412
91. <i>G'oyibnazarova M.</i> Mahmudxo'ja Behbudi asarlarida Turkistondagi ijtimoiy masalalar tahlili	416
92. <i>Xakimov A.</i> Jadidlar yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy merosi	424
93. <i>Sanaqulov A.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari	427
94. <i>Shaturayeva S.</i> Jadidchilik g'oyalarining ilmiy-nazariy asoslari	432
95. <i>Shaturayeva S.</i> Mahmudxo'ja Behbudi ijodining ta'lim tizimi integratsiyasidagi roli va ijtimoiy ahamiyati	437
96. <i>Mahammatov A.</i> Jadid adabiyotiga xos janrdagi asarlarni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	441
97. <i>Axmedov R.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston aholisining siyosiy madaniyatni yuksaltirishdagi roli va hissasi	444
98. <i>Abdullakhojayev A.</i> The commonality of Behbudi and Ibrat activities in Turkestan Jadidism: Social-philosophical analysis	447
99. <i>Umarova F.</i> Turkiston ma'rifatparvarlarining nasrida ayollar tasviri (Mahmudxo'ja Behbudi ijodi misolida)	455
100. <i>Rasulova K.</i> The role of the Jadids in the development of uzbek language syntax	458
101. <i>Akbarov Z.</i> "Padarkush" asarining sotsiolingvistik tahlili	462
102. <i>Akbarov Z.</i> Xorijiy mamlakatlarda Mahmudxo'ja Behbudi ijodining o'rganilishi	465

103. <i>Ismoilov T.</i> Jadidlarning pedagogik qarashlari: konseptual tahlil va ilmiy yondoshuvlar	469
104. <i>Ismoilxo'jayeva M., Uskanov K.</i> Bizga qanotdir kitob	474
105. <i>Rahmonova I.</i> Religious and enlightenment ideas in Bekhbudi's journalism (based on the article "A view on the history of the Quran")	478
106. <i>Jabborova M.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari.....	482
107. <i>Elguzarov B.</i> Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ilmiy faoliyati	486
108. <i>G'aybullayev A.</i> Jadidlar ilmiy merosining ta'lim jarayoniga integratsiyalash muammolari va imkoniyatlari.....	490
109. <i>Qaxxorov S.</i> Harbiy madaniyat kompetensiyalari mazmuni, tuzilishi va tarbiyaviy sifatleri	496

HARBIY MADANIYAT KOMPETENSIYALARI MAZMUNI, TUZILISHI VA TARBIYAVIY SIFATLARI

Qaxxorov Siyovush Xudoyor o'g'li

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada harbiy madaniyat kompetensiyalarining mazmuni, tuzilishi va tarbiyaviy sifatlari tahlil qilinadi. Ushbu kompetensiyalar harbiy xizmatchilarda kasbiy bilim, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. Mazmun jihatdan vatanparvarlik, intizom va fidoyilikka asoslanadi. Tuzilishi esa axloqiy, psixologik va amaliy elementlarni qamrab oladi. Tarbiyaviy jihatlari esa yoshlarni harbiy burchga sodiq, mas'ul va ma'naviy yetuk shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy madaniyat, kompetensiya, tarbiyaviy sifatlari, vatanparvarlik, intizom, fidoyilik, axloqiy tarbiya, psixologik tayyorgarlik, ma'naviy barkamollik, jangovar tayyorgarlik

Аннотация: В статье анализируется содержание, структура и воспитательные качества компетенций военной культуры. Эти компетенции формируют у военнослужащих профессиональные знания, духовную зрелость и социальную ответственность. По содержанию он основан на патриотизме, дисциплине и самоотверженности. Структура охватывает этические, психологические и практические элементы. Воспитательные аспекты направлены на воспитание молодежи верными воинскому долгу, ответственными и духовно зрелыми личностями.

Ключевые слова: Военная культура, компетенция, воспитательные качества, патриотизм, дисциплина, самоотверженность, нравственное воспитание, психологическая подготовка, духовное совершенство, боевая подготовка

Abstract: The article analyzes the content, structure, and educational qualities of military culture competencies. These competencies form professional knowledge, spiritual maturity, and social responsibility in military personnel. In terms of content, it is based on patriotism, discipline, and dedication. Its structure

encompasses moral, psychological, and practical elements. Educational aspects are aimed at educating young people as conscientious, responsible, and spiritually mature individuals.

Keywords: Military culture, competence, educational qualities, patriotism, discipline, dedication, moral education, psychological training, spiritual maturity, combat training

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar harbiy tizimlarida harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni uzluksiz takomillashib borayotgan bo'lib, u zamonaviy tahdidlar va harbiy strategiyalarni hisobga olgan holda yangilanadi. Shu boisdan, harbiy madaniyatni o'qitish metodikalarining doimiy ravishda takomillashuvi armiyalarning jangovar shayligini oshirishga xizmat qiladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasi – yoshlarning harbiy intizomga, xizmatga va vatanparvarlikka bo'lgan yondashuvini belgilaydigan bilim, ko'nikma va xulq-atvor majmuasidir. Bu kompetensiya yoshlarning jismoniy, ma'naviy va psixologik tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularni harbiy xizmatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Kompetensiya (lotincha *competens* – to'g'ri, qobiliyatli) ma'lum bir sohada bilim va tajribaga ega bo'lishdir”[1]. Mutaxassisning kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyorlik qobiliyati bilan belgilanadigan ajralmas kasbiy va shaxsiy xususiyat hisoblanadi. Hozirgi kunda jamiyatda qabul qilingan me'yor va standartlarga muvofiqlikdir. Bunda “kompetensiya (lotincha *competere* – erishmoq, mos kelmoq, mos bo'lmoq) ma'lum bir shaxs bilim va tajribaga ega bo'lgan masalalar majmuasidir”[2]. Bilim, ko'nikma va tajribani tanish vaziyatlarda qo'llash qobiliyatidir. Bizningcha, kompetensiya tushunchasi torroq bo'lib, umuman olganda, muayyan kasb sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan chegaralanadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning muhim bosqichi bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarda harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Bu kompetensiyalar harbiy xizmat qoidalarini bilish, intizomga rioya qilish, jismoniy tayyorgarlik, vatanparvarlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. “Harbiy madaniyat yoshlarda vatanparvarlik, intizomlilik, jismoniy va ma'naviy tayyorgarlik, hamda harbiy xizmatga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi”[3].

Harbiy madaniyat yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u vatanparvarlik, intizomlilik, jismoniy va ma'naviy tayyorgarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, harbiy xizmatga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirish orqali yoshlar mas'uliyat hissi, fidoyilik va tartib-intizomni o'zlashtiradi. Bu esa nafaqat mudofaa sohasida, balki jamiyatning boshqa jabhalarida ham ularning faol va vatanparvar fuqarolar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasi harbiy xizmatchilar va fuqarolarning harbiy sohaga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tushuncha hisoblanadi. Bu kompetensiya harbiy xizmatchining o'z kasbiy vazifalarini bajarishda harbiy intizom, vatanparvarlik, sadoqat va mas'uliyat kabi fazilatlarini o'zida mujassam etishini anglatadi. Ta'lim jarayonida harbiy madaniyat muhim o'rin tutadi, chunki u yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning harbiy-siyosiy savdixonligini oshirish va jismoniy hamda psixologik tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilgan. Harbiy madaniyatni ta'limga integratsiya qilish orqali talabalar mardlik, jasorat, fidoyilik, jamoaviylik va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, harbiy bilimlar ta'limning turli bosqichlarida, jumladan, maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida maxsus fanlar yoki dasturlar orqali o'qitiladi.

Mazkur kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri "harbiy-huquqiy bilim bo'lib, bu harbiy xizmatchilarni mamlakat mudofaasiga oid qonun va qoidalarini puxta o'zlashtirishga undaydi. Shuningdek, harbiy axloq va ma'naviyat tamoyillari shaxsda intizom, fidoyilik, sadoqat va jamoaviy hamkorlikni shakllantiradi"[4]. Harbiy-psixologik tayyorgarlik esa stressga bardoshlilik, murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jismoniy tayyorgarlik ham muhim tarkibiy qism bo'lib, harbiy shaxsning jismoniy chidamliligini va jangovar holatlarga tayyorligini oshiradi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari orasida nazariy va amaliy mashg'ulotlar, harbiy tarbiya tadbirlari, sport mashg'ulotlari, shuningdek, harbiy an'ana va marosimlar orqali vatanparvarlikni

rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu kompetensiya shaxsning harbiy xizmatga sadoqatini mustahkamlash bilan birga, jamiyatda milliy g‘ururni oshirishga ham xizmat qiladi. Harbiy madaniyat kompetensiyasi harbiy xizmatning samarali tashkil etilishida muhim rol o‘ynaydi. U harbiy intizom, vatanparvarlik va kasbiy mahoratni rivojlantirish bilan birga, milliy xavfsizlikning mustahkamlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, harbiy madaniyat kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasi – harbiy sohaga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni o‘z ichiga olgan muhim kasbiy kompetensiyadir. U harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, intizomni mustahkamlash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga xizmat qiladi. Harbiy madaniyat kompetensiyasining tuzilishi bir nechta asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular harbiy xizmatchining jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta‘minlaydi. Ushbu tarkibiy qismlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, harbiy xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri *harbiy-huquqiy bilimlardir*. Harbiy xizmatchi harbiy qonunchilik, xalqaro harbiy huquq va nizolarni tartibga solish bo‘yicha aniq bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu esa harbiy xizmatni qonuniy asosda yuritish, tartib-intizomni mustahkamlash va inson huquqlarini hurmat qilishga xizmat qiladi. Harbiy qonun-qoidalariga rioya qilish harbiy intizomning asosi bo‘lib, xizmat samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Harbiy madaniyatning yana bir muhim tarkibiy qismi *harbiy axloqiy qadriyatlardir*. Harbiy xizmatchi o‘z kasbiga sadoqat, fidoyilik va mas‘uliyat bilan yondashishi lozim. Harbiy etiket, odob-axloq qoidalari va jamoaviy birdamlik bu yo‘nalishning asosiy unsurlari hisoblanadi. Vatanparvarlik, do‘stlik, sadoqat va jasorat harbiy axloqning negizini tashkil qiladi. Ushbu tamoyillar harbiy xizmat samaradorligini oshirib, harbiy jamoalarda sog‘lom muhitni shakllantiradi.


Harbiy xizmatchining harbiy xizmat davomida duch keladigan qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishi uchun *harbiy-psixologik tayyorgarlik* juda muhimdir. Stressga chidamlilik, qaror qabul qilish qobiliyati va ruhiy barqarorlik harbiy shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida asosiy omillardan biridir. Harbiy xizmat sharoitlari insondan tezkor va to'g'ri fikrlashni talab qiladi. Shu boisdan, harbiy psixologik tayyorgarlik bo'yicha treninglar va mashg'ulotlar o'tkazilib, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasining tarkibiy qismlaridan biri *harbiy-estetik madaniyatdir*. Bu harbiy kiyinish tartibiga rioya qilish, nutq madaniyatiga ega bo'lish va o'zini harbiy etikaga mos tutishni o'z ichiga oladi. Harbiy kiyinish, tartib-intizom va tashqi ko'rinish harbiy shaxsning umumiy qiyofasini shakllantiradi. Shuningdek, harbiy xizmatchining kommunikativ qobiliyatlari, odob-axloq normalari va jamoa bilan ishlash qobiliyati ham ushbu yo'nalishning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Harbiy xizmatning ajralmas qismi bu *jismoniy tayyorgarlikdir*. Harbiy xizmatchi jangovar sharoitlarga tayyor bo'lishi, jismoniy chidamlilik va harakat tezligini rivojlantirishi kerak. Sport mashg'ulotlari, harbiy jismoniy tarbiya va maxsus tayyorgarlik dasturlari harbiy xizmatchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlaydi. Harbiy sport musobaqalari va maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlari orqali harbiy xizmatchilar jismonan chiniqib, o'z salohiyatini oshiradi.

Harbiy madaniyat kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo'llanilishi natijasida, a) nazariy va amaliy mashg'ulotlar, harbiy intizom, qonunchilik va harbiy strategiyalar bo'yicha maxsus darslarni tashkil qilish; b) vatanparvarlik tadbirlarini tashkil qilish orqali, harbiy tarix va milliy g'urur mavzularida seminar va uchrashuvlar tashkil qilish; c) harbiy sport musobaqalari va maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturlarini amalga oshirish; d) Harbiy xizmatdagi axloqiy va estetik me'yorlarni shakllantirish; e) harbiy xizmatchilarning psixologik chidamliligini oshirishga qaratilgan treninglar

o'tkazish orqali shakllanib, takomillashib boradi. *Quyida harbiy madaniyat kompetensiyasining tuzilish 1-rasm*



Harbiy madaniyat kompetensiyasining tuzilishi bir necha asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular harbiy xizmatchilarning intizomli, mas'uliyatli, ruhiy va jismoniy jihatdan tayyor bo'lishini ta'minlaydi. Harbiy-huquqiy bilimlar, harbiy axloqiy qadriyatlar, harbiy-psixologik tayyorgarlik, harbiy-estetik madaniyat va jismoniy tayyorgarlik harbiy madaniyat kompetensiyasining asosiy ustunlari hisoblanadi. Ushbu kompetensiyani shakllantirish milliy xavfsizlik, jamiyat barqarorligi va harbiy xizmat samaradorligini oshirish uchun muhim omildir. Shunday ekan, harbiy madaniyat kompetensiyasini rivojlantirish va uni harbiy sohaga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Yoshlarda harbiy madaniyat malakasini shakllantirish, ularning harbiy xizmatga tayyorligini oshirish va vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda samarali pedagogik asoslarga tayanishi zarur”[5]. Bu jarayon ta'lim-tarbiya metodlari, interfaol o'qitish texnologiyalari va motivatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, yoshlarda harbiy madaniyat malakasini shakllantirish modeli ikki asosga tayanadi. 1) Harbiy madaniyat malaka modelining pedagogik asoslari va 2) metodologik asoslarga bo'linadi.

Harbiy madaniyat malaka modelining pedagogik asoslari quyidagi bir necha bosqichlarda shakllanadi. **Birinchi bosqich, a)** shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir yoshning individual xususiyatlarini inobatga olib, qobiliyatlari va qiziqishlariga asoslangan rivojlantirish metodlarini qo'llash asosida harbiy

ta'lim va tarbiyaning motivatsion omillariga tayanadi. b) Amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – yoshlarni amaliy mashg'ulotlar asosida jismoniy imkoniyatlarini nazariy bilimlari bilan uyg'unlashtirish hamda shu orqali ularda jamoaviy hamkorlik va tashabbuskorligini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. c) Tizimli yondashuv – harbiy madaniyat malakasini bosqichma-bosqich shakllantirish hamda uzluksiz rivojlanishni takroriy o'qitish mexanizmlari asosida ta'minlash shu asosda nazorat va baholash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Ikkinchi bosqich, harbiy madaniyat malakasini shakllantirish uchun ta'lim mazmuni, o'z ichiga quyidagi jihatlarni qamrab oladi. A) nazariy bilimlar harbiy intizom, xizmat qoidalari va jamoaviy munosabatlarni shakllantirish asosida harbiy madaniyatni yuksaltirish, milliy va xalqaro harbiy an'analar va tarixiy tajribalarni o'rganish asnosida yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqatni uyg'otish. B) ruhiy va psixologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik va favqulodda holatlarda qarorlar qabul qila olish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va harbiy xizmatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish strategiyalarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich, harbiy madaniyat malakasini shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim bosqich hisoblanadi. Interaktiv ta'lim metodlari, muammoli vaziyatlarni baholash va yechimini topish, harbiy xizmatga oid virtual trening va simulyatsiyalarni qo'llay olish malakalarini axbort texnologiyalari yordamida qo'llay olishga erishiladi.

To'rtinchi bosqich, yoshlarda harbiy madaniyat malakasini shakllantirish jarayonini samarali baholash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi. Test va sinovlar – nazariy bilimlarni baholash; Amaliy mashg'ulotlar natijalari – jismoniy va harbiy ko'nikmalarni baholash; Psixologik testlar – ruhiy barqarorlik va intizom darajasi aniqlanadi.

Harbiy madaniyat jamiyatning xavfsizlik, mudofaa va harbiy sohadagi qadriyatlari, an'analari, bilimlari va tajribalarining yig'indisidir. Bu tushuncha "harbiy etikadan tortib, jangovar tayyorgarlik, harbiy-texnik bilimlar va milliy xavfsizlik masalalariga qadar keng qamrovli bo'lib, davlat mudofaasining asosiy

tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Harbiy madaniyat harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishini, vatanparvarlik his-tuyg'ularining shakllanishini hamda harbiy sohada yuqori darajadagi intizom va mas'uliyatni ta'minlaydi"⁶². Harbiy madaniyatni ta'lim jarayoniga singdirish milliy g'oyaga sodiqlik, tarixiy xotirani mustahkamlash va harbiy kasblarga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy strategiya, harbiy psixologiya, jangovar tayyorgarlik va zamonaviy urush olib borish usullari bo'yicha chuqur bilim berish orqali bo'lajak harbiy mutaxassislarining professional tayyorgarligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лобейко Ю. А., Борозенец Н. М. Психолого-педагогический словарь-справочник. –М.: Ставрополь: Изд-во "СтГАУ АГРУС", 2004. – С.256.
2. Зимняя, И. А. Компетентностный подход каково его место в системе подходов к проблемам образования // Высшее образование сегодня. – 2006. – 8. – С.20-26.
3. Резер Т.М. Патриотическое воспитание молодежи в условиях современных вызовов. // Pedagogical Journal of Bashkortostan. 2023; (3): 45-56.
4. Кудратова М.У. Психологические факторы профессиональной квалификаtsии военнослужащих. // Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. №28. – Бухара- Ярославль: МАПН, 2023. – С.144-145.
5. Стуканов В. Г. Военно-патриотическое воспитание учащихся: пособие для пед. работников учреждений образования, реализующих образоват. программы общ. сред. образования. / –Минск: "Национальный институт образования", 2023. –С.80.

⁶² Бархаев, Б.П. Психология и педагогика профессиональной деятельности офицера. М.: Воениздат, 2006.